

“AL-MUFASSAL FI SAN’ATI-L-E’ROB” ASARIDA NAHV OLIMLARINING FIKRLARI

Asqarova Saida

Graduate student of International Islamic Academy Of Uzbekistan

32/7, Khuroson, Tashkent, 100011. Uzbekistan

E-mail: asqarova@mail.ru

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariy o‘zining arab tili grammatikasiga oid “al-Mufassal fi san’ati-l-e’rob” asari hamda uning o‘z davri va hozirgi kundagi ahamiyati yoritib berilgan. Muallif o‘zining ushbu risolasida mashhur tilshunos olimlarning fikrlarini keltirib ularga o‘z munosabatini ham bildirgan. Maqolada olim keltirgan iqtiboslardan namunalar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Mahmud az-Zamaxshariy, Sibavayhi, nahv, dalil, e’rob.

АННОТАЦИЯ

В этой статье описывается работа Махмуда Замахшари о грамматике арабского языка “Аль-Муфассаль фи санъати аль-ираб”, а также освещено ее место и значение как для своего времени, так и в наши дни. В трактате имеет место мнения других известных ученых-лингвистов, а также их подробный анализ. В статье дан анализ цитат использованные ученым в данном произведении.

Ключевые слова: Махмуд аз-Замахшари, Сибавайхиб, грамматика, аргумент, флексия.

ABSTRACT

This article describes the work of Mahmoud Zamakhshari on the grammar of the Arabic language “Al-Mufassal fi san’ati al-I’rab”, as well as its significance in its time and today. The treatise contains the opinions of other well-known linguists, as well as their detailed analysis. The article analyzes the quotations used by the scientist in his work.

Keywords: Mahmud az-Zamakhshari, Sibavayhi, grammar, argument, inflection.

Mahmud Zamaxshariy islom hamda arab tilshunosligiga oid ilmlarda yuqori marralarni zabt etdi. Uning tilshunoslikka oid asarlari ichida “al-Mufassal fi san’ati-l-

e'rob" asari alohida e'tiborga sazovordir. Zamaxshariy arab tili va uning asosi hisoblangan e'rob (fleksiya) bilan tanish bo'lmagan kishi Allohning kalomi bo'lmish Qur'oni Karimni tushuna olmasligiga amin edi. "Mufassal" asarining muqaddimasida olim bu haqida shunday deb yozadi: "E'rob ilmining foydasi juda ko'p, kimki uni egallamasdan Allohning kalomini tafsir qilmoqni istasa, ko'r-ko'rona ish tutibdi. E'rob – bayon ilmining bir pog'onasi bo'lib, u Qur'oni Karimning nozik jihatlarini ochib beradi. Undan to'silgan kishi yaxshilik yo'lida yurishdan to'silgandir[1:4]".

Zamaxshariy o'zining "Mufassal" asarini 513/1119. yilda ramazon oyining avvalida yoza boshlagan va 515/1121 yil muharram oyining boshida nihoyasiga yetkazgan[2:255]. Zamaxshariy bu asarni yozishiga sabab: "Musulmonlarning arab tilini o'rganishga bo'lgan intilishlari hamda ilm xizmatidagi do'stlarining undan e'robgga oid, uning barcha bo'limlarini qamrab olgan bir risola bitishi haqidagi iltimoslari[1:5]" edi. Albatta, asar yozilgan davrda arab tili grammatikasiga oid boshqa asarlar ham majud edi, ulardan Sibavayhi (760-796), Abu Ali al-Farisiy (901-987) hamda Abu-l-Qosim az-Zajojiyning (892-952) asarlari keng tarqalgan edi.

"Mufassal" asari nafaqat olimlarning, balki amirlarning ham e'tiborini tortgan. Jumladan, Shom yurtining sultoni Iso ibn Muhammad Abu Bakr ibn Ayyub (1145-1218) "Mufassal" asaridan shunday ta'sirlanganki, uni yod olgan har bir kishiga 100 dinor hamda to'n va'da qilgan. Sultonning o'zi nahv ilmidan yaxshi xabardor bo'lib Sibavayhining "Kitob"ini saroydagi eng katta sharhi bilan o'rgangan, Abu Ali al-Farisiyning "Hujjat"ini o'qib chiqqan hamda uning "al-Iyzoh" asarini yod olgan edi[3:267]. Bir qancha kishilar asarni to'liq yoda olgan va mukofotga sazovor bo'lgan. Bu misol asarning o'sha davrda ham qanchalik yuqori baholanganini ko'rsatadi[5:25].

Asar ikki asr, VI va VII hijriy asrlar mobaynida Islom olamining shimoli, Xorazm, Xuroson va uning atrofidagi madrasalarda nahv fanidan darslik sifatida o'qitilgan. Shom, Misr, Iroq, Hijoz va Yaman davlatlarida asarni o'qib-o'rganish uchun ilm majlislari tashkil etilgan[4:44].

Asar yozilgan kundan boshlab olimlar e'tibori markazida bo'ldi, asarni o'rganishga bo'lgan harakat kundan-kunga oshib bordi, buni biz asarga yozilgan sharhlar namunasida ko'rishimiz mumkin. Sharhlarning asosiy qismi asar yozilgan asr hamda undan keyingi ikki asrda yozilgan. Asarning "Taxmiyr" nomli Qosim al-Xorazmiyga tegishli sharhini 1990-yilda tahqiq etgan olim Doktor Abdur-Rahmon ibn Sulaymon al-Usaymiyn "Mufassal" asariga tegishli bo'lgan 94 ta sharhni keltiradi, ulardan 24 tasining muallifi noma'lum. Bundan tashqari asarga 3 ta muxtasar, 4 ta manzuma, 2 ta taqlid va 1 ta raddiya yozilgan[4:47-59]. Hozirgi kunga qadar ushbu asarlar va ularga yozilgan sharhlar olimlar tomonidan o'rganilib kelmoqda.

Arab tili grammatikasiga oid yozilgan mashhur asarlardan Sibavayhining "al-Kitab", Zajojiyning "al-Jumal", Abu Ali al-Farisiyning "al-Iyzoh", ibn Hojibning

“Kofiya”, ibn Molikning “Alfiya”, ibn Hishomning “al-Mug‘niy” qatorida Zamaxshariyning “al-Mufassal” asari avvalgi o‘rinlarni egallaydi. Bu asarlar ichida “al-Mufassal” asarining o‘ziga xosligi shundaki, Zamaxshariy uni ikki katta nahv maktabi - Basra va Kufa maktablari orasidagi uzoq bahs-munozalar to‘xtab, nahv ilmi tarixida ikkala maktabdan eng to‘g‘ri, eng munosib fikrlarni saralab olish mumkin bo‘lgan shu bilan birga ularning ikkisidan mustaqil ajralib chiqib o‘z yo‘nalishini yaratish mumkin bo‘lgan davrda yozgan. Basra hamda Kufa o‘rtasida bahs va munozaralar ko‘pligidan nahv ilmini o‘rganish talabalar uchun mashaqqatga aylangan edi. Zamaxshariy esa o‘zidan avvalgi asarlarni chuqur o‘rganib, ularni jamlagan holda o‘zining qarashlarini qo‘shib, o‘quvchi uchun qulaylik yaratish maqsadida muxtasar holatga keltirgan. Bu haqda muallifning o‘zi shunday deydi: “shunday tartibdaki, o‘quvchi u orqali uzoqdagi maqsadga yaqin yo‘l bilan erishadi[1:5]”.

Mufassal asari o‘zidan avval yozilgan nahv ilmining toji sanalgan Sibavayhining “al-Kitab” asariga tenglashdi, hattoki undagi masalalarning tartibi jihatidan undan o‘zib ham ketdi.

Muallif bu asarini yozishda quyidagi uslublardan foydalangan:

1. Qoidalarining qisqa va lo‘ndaligi; Muallif murakkab qoidalarni ham qisqa jumlar bilan yoritib bergan va qoida matnida jumalarning ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘ymagan. Muallif faqatgina dalil hamda misollarni ko‘proq keltirishga harakat qilgan.

2. Muallif avval umumiy qoidani keltirib so‘ng uni oddiy misollar bilan tushuntirgan. Misollardan so‘ng ushbu qoidaga oyat, hadis, bayt yoki maqol bilan dalil keltirgan;

3. Ba‘zi o‘rinlarda umumiy bir qoidani keltirib so‘ng undan kelib chiqadigan qoidalarni tushuntirgan;

4. Takror, ko‘pirtirish hamda mavzudan chetga chiqishdan saqlangan;

5. Nahv qoidalariga oid bahs-munozaralarni zikr qilishda chegaralangan;

6. So‘zning etimologiyasini aniqlashga harkat qilgan. Sababi bu usul o‘rganilayotgan qoidani tushunishni osonlashtirgan;

Zamaxshariy “Mufassal” asarini boshqa nahv asarlari an‘anasiga noodatiy tarzda muqaddimadan boshladi va uni to‘rt qismga bo‘ldi:

1. Birinchi qism: Ismlar haqida

2. Ikkinchi qism: Fe‘llar haqida

3. Uchinchi qism: Harflar haqida

4. To‘rtinchi qism: Ism, fe‘l va harflar o‘rtasidagi mushtarak qoidalar haqida

Ushbu 4 qismning har biri nozik did bilan e‘rob qoidalarining tartibiga ko‘ra yana ichki fasllarga ajratilgan.

Asar o‘zidan avvalgi yozilgan nahv asarlariga jamlovchi, xulosa kitob sifatida aks etadi. Asarni o‘qigan o‘quvchi uni Sibavayhining “al-Kitob” asari bilan o‘xshash tomonlari borligini sezadi. Shunday o‘xshash jihatlardan ba‘zilari: ta’riflar, bob nomlari, dalillar va misollardir. Asarda Zamaxshariy aksar o‘rinlarda Sibavayhining baytlaridan keltirishi va uning fikrlariga qo‘shilishida hatto “Mufassal” – “al-Kitab” ning qisqacha bayoniga ham o‘xshaydi. Lekin Zamaxshariy asarida alohida o‘zining fikrlarini, o‘zining yo‘nalishini ham bildirgan.

Asarda Sibavayhining nomi aynan zikr etilgan o‘rinlar 90 ta. Zamaxshariy asarida Sibavayhidan tashaqari quyidagi nahvshunos olimlarning fikrlarini bir martadan ortiq zikr etgan:

1. al-Axfash al-Avsat - asarda 23 o‘rinda zikri etilgan.

أنواع الأفعال المتعدية إلى ثلاثة

والأفعال المتعدية إلى ثلاثة أضرب: ضرب منقول بالهمزة عن المتعدي إلى مفعولين، وهو فعلان: أعلمت وأريت، وقد أجاز الأخفش أظننت وأحسبت وأخلت وأزعمت [1:257].

Uchta maf’ulga o‘timli bo‘lgan fe’llar uch turdir: ikki maf’ulga mutaaddiy fe’lning oldiga hamza qo‘shilganlari: أعلمت (bildirdim), أريت (ko‘rsatdim); Axfash quyidagi fe’llarni ham qo‘shishni to‘g‘ri sanagan: أزعمت, أخلت, أحسبت (hisoblatdim).

2. Yunus ibn Habiyb al-Basriy - asarda 8 o‘rinda zikri kelgan.

وتقول في بنت وأخت بنوي وأخوي عند الخليل وسيبويه، وعند يونس بنتي وأختي. وتقول في كلتا كلتي وكلتوي على المذهبين [1:210].

Nisbat ياء si haqidagi bobdan:

Sibavayhi va Xoliyl بنت hamda أخت so‘zlarida (nisbat yoyi qo‘shilganida) بَنَوِي hamda أَحْتِي hamda بِنِي hamda أَحْوِي (ko‘rinishida yasashadi), Yunusning fikriga ko‘ra esa بِنِي hamda أَحْتِي bo‘ladi. كَلْتَوِي so‘zlari esa ikkala yo‘nalishda ham كَلْتِي hamda كَلْتَا.

3. Al-Xoliyl ibn Ahmad al-Farahdiy - asarda 25 o‘rinda zikri kelgan.

ويجزم بأن مضمرة إذا وقع جواباً لأمر أو نهي أو استفهام أو تمن أو عرض، نحو قولك أكرمني أكرمك، ولا تفعل يكن خيراً لك، وألا تأتني أحدثك، وأين بيتك أزرک، وألا ماء أشربه، وليته عندنا يحدثنا، وألا تنزل تصب خيراً... قال الخليل إن هذه الأوائل كلها فيها معنى إن فلذلك انجزم الجواب [1:252]

Agar fe’l buyruq, so‘roq, umid yoki taklif ma’nosidagi jumlagi javob sifatida kelsa, u jazm qilinadi. Misol uchun, “Meni hurmat qilsang seni hurmat qilaman”, “Unday qilma, senga yaxshi bo‘ladi”, “Yonimga kelmaysanmi, sen bilan gaplashar edim”, “Uying qayda bo‘lsa, ziyoratga boraman”, “Suv yo‘qmi, ichar edim”, “Qani edi u yonimizda bo‘lsa, suhbatlashar edik”, “Tushmaysanmi, yaxshilikka erishasan”. Xoliylning ayishicha avval kelgan (shartiya jumla)larning hammasida إن (shart yuklamasi)ning ma’nosi bor, shu sababdan javobi shart jazm qilingan.

4. Abu-l-Abbos al-Mubarrod - asarda 13 o‘rinda etilgan

وهو عند المبرد يكون فعلاً في نحو قولك: هجم القوم حاشا زيدا بمعنى جانب بعضهم زيدا [1:290]

Harf jarlar (predloglar) haqidagi bobda Zamaxshariy حاشا ning ma'nosi haqida shunday yozadi: Mubarroding fikricha (حاشا) fe'ldir, masalan:

هجم القوم حاشا زيدا

Jumladagi حاشا – uzoqlashtirdi ma'nosida bo'lib, jumla: “Qavm hujum qildi, ularning ba'zilari Zaydni uzoqlashtirdilar” degan ma'noni anglatadi.

5. Abu-l-Hasan al-Kisaiy - asarda 5 o'rinda zikri kelgan

وتقول في تعريف الأعداد ثلاثة الأثواب، وعشرة الغلطة، وأربع الأدور وعشر الجواري، والأحد عشر درهماً، والتسعة عشر ديناراً، والأحدى عشرة والأحد والعشرون ومائة الدرهم، ومائتا الدينار، وثلاثمائة الدارهم، وألف الرجل؛ وروى الكسائي الخمسة الأثواب [1:216]

Sonlar bobida muallif birliklar, o'nliklar, yuzliklar hamda mingliklar o'zining sanalmishi bilan qanday holatda kelishiga misollar keltirgan, so'ngra Kisaiydan birlikdagi son ham sanalmishi bilan barobar ma'rifa (aniq holatda) qilinadi, deb aytganini keltiradi.

6. Abu Zakariyo Yahyo ibn Ziyod al-Farro - asarda 7 marta keltirilgan.

ليت هي للتمني كقوله تعالى: "ياليتنا نرد" ويجوز عند الفراء أن تجري مجرى أتمنى فيقال ليت زيدا قائماً كما يقال أتمنى زيدا قائماً [1:302]

ليت fe'lga o'xshash harf bobida muallif shunday keltiradi:

ليت – umid ma'nosini ifodalash uchun ishlatiladi. Alloh Taoloning aytganidek: “Qani endi (u dunyoga) qaytarilsak edik”. Farroning fikricha bu harf أتمنى (umid qilaman) fe'li kabidir.

ليت زيدا قائماً jumlasini – “Umud qilamanki, Zayd o'rnidan turgan” jumlasini kabidir.

Xulosa qilib ayadigan bo'lsak, Zamaxshariyning “Mufassal” asari yaratilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha jamoatchilik tomonidan ulkan shuhratga ega bo'lib kelmoqda.

“Mufassal” asari o'rta asr nahv ilmi rivojida katta burilish yasadi.

Zamaxshariy o'z asarida undan avvalgi va u bilan zamondosh tilshunos olimlarning fikrlaridan ko'plab iqtiboslar keltiradi.

Zamaxshariy Sibavayhining so'zlarini ba'zan o'zgarishsiz, ba'zan qo'shimcha yoki qisqartma holida keltiradi. Ko'pincha shunday ko'chirma gaplarida Sibavayhining ismini zikr qiladi, ba'zi o'rinlarda misol yoki bayt uning asaridan olinganligiga ishora qilib: “في الكتاب” deb yozadi, ba'zan esa Sibavayhining fikrini unga hech bir ishorasiz keltiradi.

Sibavayhidan tashqari Zamaxshariy yana Abu-l-Fattoh al-Axfash, Yunus ibn Habiyy al-Basriy, al-Xoliyl ibn Ahmad al-Farahdiy, Abu-l-Hasan al-Kayson, al-Kisaiy, al-Mubarroding fikricha, Abu-l-Abbos Sa'lab, al-Maziniy, al-Farro', al-Asma'iy, az-Zajjoj kabi mashhur nahvshunoslarning fikrlarini keltirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mahmud az-Zamaxshariy. Al-Mufasssal fi san’at al-e’rob. – Qohira, 1905.
2. Ibn Xallikon. Vafoyt al-a’yon va anbau abna’ az-zamon. – Misr, 1881. – No.3.
3. Jamoluddin al-Atbakiy. An-nujum az-zahiro fi muluki misr va qohiro. – Qohira, 1946. – No.6.
4. Al-Qosim ibn al-Husayn al-Xorazmiy. At – Taxmiyr // Muhaqqiq Doktor Abdurahmon ibn Sulaymon. – Makka, 1990.
5. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. (Sharhlar muallifi va tarj. U.Uvatov. Nashrga tayyorlovchi Asad Dilmurod) – T.: Kamalak, 1992.
6. S. Asqarova. Mahmud Zamaxshariyning “al-Mufasssal” asari arab grammatikasiga oid muhim manba//Moturidiylik. – 2022. – Maxsus son. – B.